



KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI



2024 yil 15-iyun

raqobat tamoyili, mulkchilik shaklidan va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, kichik biznesni rivojlantirish uchun tashqi shart-sharoitlarning tengligi; harakatning iqtisodiy mexanizmlarining ustunligi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va hududni rivojlantirish jarayonlarini muvofiqlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Belolipetskaya V. (2012), Mintaqadagi innovatsion siyosat: muammolar va istiqbollari. Don Davlat Texnika Universiteti Axborotnomasi, 10 (6), 948-953.
2. Bessonov I. (2013), Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes. 21-asrda davlat va mahalliy boshqaruv: nazariya, metodologiya, amaliyot, 7, 11-16.
3. Kobersy I.S., Xasieva L.G., Yakhina V.D., Ignatieva O.V., Goloshchapova L.V., Shkurkin D.V., Sadykova L.R. (2016), motivatsiyani kompleks sifatida amalga oshirishga yondashuvlar. Ijtimoiy va mehnat munosabatlari samaradorligini oshirishning zaruriy shartlari: Xalqaro tajriba. Xalqaro menejment sharhi va
4. Marketing, 6(1), 208-217.
5. Mamycheva D.I., Melnichuk A.V., Taranova I.V., Chernyx A.I., Gadjieva E.Yu., Ratiev V.V. (2016), Xodimlarni rag'batlantirishni tashkiliy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun asboblarni to'plami. Menejment va marketingning xalqaro sharhi, 6(1), 142-147.
6. Nadtochiy Yu.V., Klochko E.N., Danilina M.V., G

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH
KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI SAMARALI
RIVOJLANTIRISH**

Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna
BuxDU, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Bo'stonova Shirin Sharof qizi
3-1 MEN-23 guruhi talabasi

Bugun jahon miqyosida raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini, jumladan xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasida aholi soni o'sib bormoqda, bu esa o'z navbatida aholi iqtisodiy faoliyatiga hamda xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.

Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan mamlakatlar amaliyoti ko'rsatishicha, iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasi bilan bog'liqdir.

Xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanishi barcha iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanishiga, ularning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilib, diversifikatsiya qilinayotgani tufayli yangi-yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohaslariga asos solinayapti. Buning natijasida yuqori texnologiyali zavodlar, texnoparklar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lga o'tish orqali iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq va sohaslarini zamon talablariga mos holda rivojlantirish va sifat jihatdan yangilash uchun zamin yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, - "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohaslarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi" [2].

Innovatsion faoliyat iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni doimiy tarzda sifatini yaxshilab yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratilishiga, iste'molchilar talablarini qondirish uchun ilmiy-texnik taraqqiyotning texnologiyalarini eng yangi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishiga zamin yaratadi. Bu faoliyatlarning barchasi bozordagi o'z mavqeini yanada mustahkamlash, sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun faol innovatsion siyosat olib borishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini istiqbolli rivojlanishining mustahkam an'alarini shakllantirish zaruriyati, innovatsiyalarni boshqarish uslublari va ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirishga bo'lgan qiziqishni belgilab beradi.

"Innovatsiya va innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunda innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi, texnologiyalar transferi, yangi ishlanma kabi tushunchalarga izoh beriladi. Jumladan, "innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma" deb, ta'rif berilgan bo'lsa, "innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat" [1] deb, ta'rif berilgan.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish korxonalarining kelajagi, uning rivojlanishi aynan innovatsion faoliyat, innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida ta'minlanadi. Bu o'z navbatida xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonida innovatsion faoliyatni yuzaga chiqishiga va boshqaruv faoliyatida innovatsion boshqaruvni joriy qilinishiga sabab bo'ladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion boshqaruvdan foydalanish kelajakda katta samara beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, innovatsiya kishi kasbiy faoliyatining har qanday turiga xos bo'lib, innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlar, tahlillar va ilg'or tajribani umumlashtirish natijasida sodir bo'ladi.

Innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalari aniq belgilab olinishi zarur, aks holda innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan resurslar sarfi natijasiz va samarasiz bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatga samarasiz sarflangan resurslar katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Innovatsiya yangilik darajasiga qarab klassifikatsiyalanadi:

- 1) yangi eski mahsulotlar – bu mavjud iste'mol mahsulotlardan foydalanishning yangi yo'llari;

2) tovar iste'molchilarini yangi guruhini tashkil etish uchun yangi bozorlarga chiqish;

3) ishlab chiqarishning yangi yo'llari, ya'ni zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarish hamda tarqatishning va mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi yo'llari.

Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarish asosini innovatsiya tashkil etadi va u mavjud innovatsion davlat funksiyalarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Mamlakatlar iqtisodiyoti turi rivojlanish darajasiga qarab, asosan xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyot, industrial iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga bo'linadi. Innovatsion iqtisodiyot iqtisodiyotning eng yuqori rivojlangan turi hisoblanadi va u uchun bilimli jamiyat xosdir.

Hozirgi kunda fan-texnika yutuqlarini keng joriy etish va undan samarali foydalanish uchun turli mexanizmlar va institutsional tuzilmalar, ya'ni milliy innovatsion tizim shakllanmoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan zamonaviy globallashuv, raqamli iqtisodiyot hamda yangi O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish masalasi nafaqat korxonalar darajasida balki oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash hamda ularning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish muammolari O'zbekiston uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki faqatgina resurs tejovchi, ilg'or texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda innovatsion rivojlanish iqtisodiyot barqarorligini jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. Ammo, texnologiyalarni o'zgartirish – tizimli yondashuvni, an'anaviy texnologiyalardan yangi resursni tejovchi texnologiyalarga o'tishda korxonaning texnologik tizimida yuz beradigan barcha o'zgarishlar haqidagi bilimlarni talab qiluvchi murakkab jarayon.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion faoliyati, ularning rivojlanishidagi muammolar o'rganilishi, ularning uzoq muddatli davr uchun mo'ljallangan innovatsion rivojlanish dasturlari va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi, ularni moliyalashtirish va tegishli imtiyozlardan foydalanish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishi lozim.

Korxonalar va tashkilotlar amaliyotidan shuni kuzatish mumkinki, hozirgi kunda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi har bir xizmat ko'rsatish korxonasining rivojlanishi yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20 b.
3. Бовин А. А. Управление инновациями в организации: учеб.пособие /– М.: Омега – Л, 2006. – 415 с. 211-212 с.
4. Zayavitdinova N.M., Norqulov H. Tarkibiy o'zgarishlar davrida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash masalalari. "Innovatsion texnika va texnologiyalar tadbiri" faol tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida" mavzusida pedagog-xodimlar, ilmiy-tadqiqotchilar va talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro, 2018. 664-666 b.

KORXONALARDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Innovatsion marketing hozirgi kunda tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitini yanada oshirish hamda davlatlararo eksport salohiyatini samarali oshirishda qo'llaniladigan, yangiliklarga bo'lgan ehtiyojni qondirish orqali foyda olishga yo'naltirilgan inson faoliyatidir.

Kalit so'zlar: innovatsiya, marketing, innovatsion marketing, bozor, raqobat, innovatsiya davri, bozor, sikli eksport, eksport salohiyati, brending.